

HAVO-DESANT TEXNIKALARINI ZAMONAVIY JANGLARDA QO'LLANILISHI

Chirchiq OTQMBYu

*Havo-desant tayyorgarligi kafedrasini
kafedra boshlig'ining o'rinbosari*

A.A. Mirzarahimov



Parashyut yordamida shaxsiy tarkibni etkazish usullari aviatsiyaning rivojlanishi bilan bog'liq. Ayrim davlatlar 20-asrning boshlarida parashyut yordamida bo'linma va qurol-aslaxalarni biron bir hududga etkazish va ushbu usul bilan qo'shinlarning tezkorligini va jangovar salohiyatini oshirish mumkinligini tushunib etgan. Shuning uchun har bir davlat

o'zining qurolli kuchlar safida parashyut desant qo'shinlarini tuzishni boshlagan.

Bunday bo'linmalar bajarish vazifasidan kelib chiqqan xolda mavjud qurol-aslaxa bilan qurollanganlar. Havo-desant qo'shinlarini ommaviy ishlatilishi 2chi jahon urushida keng qo'llanilgan. Urush tugatilishi bilan barcha davlatlar o'zida mavjud qo'rol-aslaxa va texnikalarning takomillashtiruviga va yangi na'munalarni ishlab chiqishga kirishgan, havo-desant qo'shinlari ham



bundan mustasno emas. Biroq uchish apparatlar toifasiga vertolyotlarni kirib kelishi bilan, parashyut yordamida qo'shinlarni desantlashtirish usullarini qo'llash nomaqbul bo'lib qolganday edi. Chunki vertolyotlarga samolyotga uxshab maxsus tayyorlangan uchish va qo'nish yo'laklari yoki maydonlar kerak bo'lmasligidadir, ular har qanday hududga uchib borishi va usha joyda o'ziga joy tanlab qo'nishga kodirligidadir. Undan tashqari o'tgan asirning 60chi yillaridan buyon olib borilgan urushlarda parashyut yordamida ommaviy shaxsiy tarkibni jang maydonlariga etkazish usuli sanoqli holatlarda ko'rib chiqish mumkin. [1] Asosiy havo orqali

shaxsiy tarkibni belgilangan xududga etkazish vertolyot yordamida amalga oshirilgan va bunga Amerika qo'shma Shtatlarining V'etnam davlatida olib borgan jangovar xarakatlarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Yetib borish qiyin bo'lgan xududlarga tezkorlik va yashirinlik bilan vertolyot yordamida foydalanish parashyut vositalarini qo'llash oldida katta afzalliklariga ega bo'lgan. Shunday afzalliklar vertolyotlarni yanada rivojlanishi va qo'shinlar tomonidan jang olib borish usullarini tubdan o'zgartirish kiritgan.

Hozirgi zamon urushlarida jang olib borish usullari tubdan o'zgargan bo'lsada, yashirinlik va tezkorlik qo'shinlarning jangovar saloxiyatini oshirishdagi eng birinchi omillaridan biri hisoblanadi. Shunday qilib qo'shinlarda parashyut tayyorgarligi va ushbu usuldan foydalanish yoki foydalanmaslik savollari ko'pchilik orasida munozaralar kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Mening fikrimcha havo-desant tayyorgarligi va havo-desant texnikasi xozirda ham keng imkoniyatlarga ega. Bularning sabablarini ko'rib chiqishimiz mumkin:

Barcha yo'nalishlar rivojlanishi tez suratlarda o'sib borish jarayonida, havo-desant texnikalarining rivojlanishi ham doimiy ravishda olib borilmoqda. Shaxsiy tarkib va texnikalarni parashyut yordamida desantlashtirish uchun yangi turdagi parashyut tizimlarini yaratilishi va ularning



imkoniyatlari hozirgi zamon urush talablariga javob beradi. Bunday imkoniyatlardan biri bu shaxsiy tarkibni maksimal balandliklardan va belgilangan hududan ma'lum uzoqlikda desantlashtirilishi. Bular birinchidan yukorida aytib o'tilgan yashirinlik va tezkorlik imkonini yaratadi. Ikkinchidan uchish vositalarini havo hujimidan mudofaa qo'shinlari tomonidan urub tushurish imkoniyatlarini pasaytirishidandir. [2]

Yana yuqorida ko'rsatib o'tilgan savollaridan bu vertolyotlarni samolyot oldidagi jangovar vazifani bajarish imkoniyatlari ko'proqligida deb aytib o'tilgan edi. Barcha afzalliklar o'ziga yarasha kamchiliklarni tug'dirib chiqaradi va vertolyotda shunda kamchiliklardan biri bu tezligining pastligi va yuqori balandliklarda ucholmasligidadir. Yaqin masofalarga shaxsiy tarkibni etkazish vertolyot afzalroq, biroq uzoq masofalarga va tezkorlik bilan shaxsiy tarkibni etkazish savoli paydo bo'lganda samolyot imkoniyatlari ko'proq, biroq samolyotlarga qo'nish maydonlari talab qilinadi va mana shunday xollarda parashyut bilan shaxsiy tarkibni etkazish usuli qo'l kelishi mumkin.

Parashyut va desantlashtirish vositalarining taktik – texnik tafsini yaxshilanishi ulardan zamonaviy urushlarda har qanday vazifalarni bajarish uchun



ishlatish mumkin. Misol tariqasida parashyutlarning gorizontaal tezligi 12 metr soniyaga teng deb oladigan bo'lsak uning uchish tezligi soatiga 40 km hosil qiladi. Erdan 2000 metr balandlikda ushbu turdagi parashyutlar ishga tushirilsa ular 5-7 km oraliq masofani uchib o'tishi mumkin, agarda balandroq parashyutni ishga tushursak unda bu masofa ikki baravargacha oshishi mumkin. 10-15 km masofani yashirinlik bilan bosib o'tish jangovar

vaziyatda katta imkoniyatlarni yaratadi.

Undan tashqari rivojlangan davlatlar tomonidan "Grifon" sun'iy qanotli parashyut tizimi yaratilgan bo'lib uning gorizontaal uchish tezligi o'rtacha soatiga 150 kmdan - 400 kmgacha etishi mumkin. Bunda imkoniyatlarga ega parashyut vositalari qo'shinlarning imkoniyatlarini oshirishida hech kimda shubxa o'yg'otmasa kerak.

Qo'shinalardagi tinchlik davrida havo-desant



tayyorgarligi bo'yicha o'tkazilayotgan mashg'ulotlar yana bir jihati bilan afzallikka ega bu harbiy xizmatchilarning jangovar ruhiyatini oshirish.

Chunki parashyut bilan sakrash mashg'ulotlari o'ta havli hisoblanadi va ko'pchiligda qo'rquv xissiyotini oshiradi. Qo'rkuvni engish esa inson ruhiyatidan katta kuch talab etadi va bir bor bu qo'rkuvni engigan inson kelajakda dushman bilan jang qilish mobaynida paydo bo'ladigan hayajon va qo'rkuvni engib ketishiga yordam berishi mumkin.



Shunday qilib havo-desant va mahsus qo'shinlar zamonaviy urushda parashyut vositalari yordamida har xil turdagi vazifalarni bajara olishi mumkin. Bular yashirinlik va tezkorlik bilan dushman joylashgan hududlarga etib borish, yoki dushmanni orqa tarafidan zarba berish, dushman xarakatlanish yo'nalishlariga

pistirma qo'yish uchun yashirincha etib borish, shuningdek havo orqali qo'shinlarga zarur vositalar va anjomlarni etkazib berishda foydalanish mumkin.

Yakunda shuni aytib o'tish kerakki, urushda barcha usullar va vositalar kerakli hisoblanadi. [3]



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Antipov D.K., «Zachem desantno`e voyska sovremennoy armii».G`G`Armeyskiy sbornik №9, 2011 god.
2. Losika O.A., «Imeyut li tanki buduhee».G`G`Armeyskiy sbornik №4, 2006 god.
3. Internet sayt [httpG`desantura.ru](http://desantura.ru).